

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası “Iqtisodiyot nazariyasi 2” fanidan 2025/2026-o‘quv yili yozgi semestrda yakuniy imtihon (test)da tushadigan savollar ro‘yxati

1. Iqtisodiy model deganda nimani tushunasiz?
2. Ayrim sohibkorlarga qarashli bo‘lib, yollanma mehnatga asoslangan holda foyda olishga qaratilgan mulk mulkchilikning qanday shakliga kiradi?
3. Ishlab chiqarish omillari nima?
4. Ishlab chiqarish xarajatlari – bu nima?
5. Ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko‘payishi tufayli qanday iqtisodiy o‘sinhga erishiladigan holatni nazariy izoxlang?
6. Ishlab chiqarishning har bir darajasida doimiy va o‘zgaruvchi xarajatlar yig‘indisi qanday xarajatlarni tashkil qiladi?
7. Merkantilizm oqimining qarashlari?
8. Joriy narxlar – bu qanday narxlar?
9. O‘zgaruvchan xarajatlar qanday xarajatlar?
10. Korxonalarda tovar va xizmatlarni sotishdan olingan mablag‘lar qanday daromadlar hisoblanadi?
11. Korxonaning o‘ziga tegishli bo‘lgan resurslardan foydalanishi bilan bog‘liq xarajatlar yig‘indisi qanday xarajatlarni tashkil qiladi?
12. Chekli naflilikning kamayib borish qonunini izoxlang?
13. Iqtisodiyot nazariyasi fan sifatida qachon shakllana boshlagan?
14. Aniq miqdor deganda nimani tushunasiz?
15. Iqtisodiy o‘sinhning mazmunini ifodalab bering?
16. Umumiy iqtisodiy qonunlar jumlasiga nimalar kiradi?
17. Iqtisodiy resurslarning barcha turi uchun umumiy bo‘lgan xususiyat nimadan iborat?
18. Takror ishlab chiqarish nazariyasini birinchi bo‘lib kimlar yaratgan?
19. Mamlakatning iqtisodiy o‘sinh sur‘atini tavsiflaydigan ko‘rsatkichlar nimalar?
20. Aholi ehtiyojlarining qondirilish darajasi qanday aniqlanadi?
21. Iqtisodiyotning o‘sinh sur‘atining ahamiyatini iqtisodchilar tomonidan qo‘llanuvchi qanday qoida mavjud?
22. Sivilizatsion yondoshuv bo‘yicha jamiyat taraqqiyoti 5 bosqichga bo‘linadi ular qaysilar?
23. Iqtisodiyotda ishlab chiqarish omillari unumdorligi pasayib borishi qonuni amal qiladi. U holda iqtisodiy o‘sinh qanday tarzda ta‘minlanadi?
24. Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi qanday aniqlanadi?
25. Qaysi omil iqtisodiy o‘sinhga salbiy ta‘sir etadi?
26. Mehnat unumdorligi qanday aniqlanadi?
27. Samaradorlik deganda nimani tushunasiz?
28. Pul agregatlari bu nima?
29. Ishlab chiqarishning asosiy omillari nimalardan iborat?
30. Mulkning qaysi ob‘ekti bevosita shaxsiy iste‘mol qilinishi mumkin?
31. Doiraviy aylanish modeli nuqtai nazaridan bozorda qatnashuvchi sub‘ektlar nimalar?
32. Qaysi holatda narxga nisbatan talab egiluvchanligi yuqori bo‘ladi?
33. Tovlar taklifining qisqarishi nimaga olib keladi?
34. Ishlab chiqarishning shaxsiy-insoniy omili nimalardan iborat? Ularning asosiy omillardan farqi nimada?
35. Me‘yoriy xarajatlarga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan xarajatlar nimalardan iborat?
36. Ish haqi stavkasini o‘shishi omillarini izoxlang.

37. Agar firma mukammal raqobatli bozorda faoliyat yuritib, o'z mahsuloti taklifini qisqartirsa, bu qanday holatga misol bo'ladi?
38. Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narxlar qanday narxlar deyiladi?
39. Yerning narxi nimalarga asosan belgilanadi?
40. YAIM (YAMM)ni qo'shilgan qiymat (ishlab chiqarish) asosida hisoblash qanday tartibda amalga oshiriladi?
41. Investor haqida tushuncha bering.
42. Yalpi talablar egri chizig'i qanday holatda o'ngga siljiydi, buni izohlab bering?
43. Nominal investitsiya deganda nimani tushunasiz?
44. Jamg'arish boshlanadigan nuqta deganda nimani tushunasiz?
45. Keynsning fikricha mamlakatdagi iste'mol xarajatlari eng avvalo nimalardan iborat bo'lishi kerak?
46. Quyidagilardan qaysi biri investitsion faollik haqida xulosa chiqarish imkonini beradi?
47. «Transfert to'lovlari» - deganda nimalarni tushunasiz?
48. Ish haqi stavkasi qanday belgilanadi?
49. Davlat byudjeti transferti nimani anglatadi?
50. YAIM (YAMM)ni qo'shilgan qiymat (ishlab chiqarish) asosida hisoblash nima uchun amalga oshiriladi?
51. Investitsiya bu nima?
52. Yalpi talablar egri chizig'i chapga siljiydi, bu holat nimani anglatadi?
53. Moddiy investitsiya deganda nimani tushunasiz?
54. Moliyaviy investitsiya deganda nimani tushunasiz?
55. Aqliy intellektual investitsiya deganda nimani tushunasiz?
56. Sof iqtisodiy ma'noda «bozor» tushunchasi nimani anglatadi?
57. Ish bilan ta'minlanmaganlarni qayta o'qitish va yangi kasbga tayyorlash qaysi muassasa tomonidan amalga oshiriladi?
58. Bozorda juda ko'p xaridorlar va oz sotuvchilar mavjud bo'lsa qanday bozor vujudga keladi?
59. Davlatning soliqlarni tartibga solish siyosati deganda nimani tushunasiz?
60. Qaysi oqim davlatning iqtisodiyotga eng kam darajada aralashuvi pul muomalasi doirasida bo'lishi kerak, -deb ta'kidlaydi?
61. Monetaristik qarash deganda nimani tushunasiz?
62. Firmaning doimiy xarajatlari bu nima?
63. Firmaning xarajatlari va turlari deganda nimani tushunasiz?
64. Firmaning o'zgaruvchi xarajatlari deganda nimani tushunasiz?
65. Ishlab chiqarish jarayoniga iqtisodiy resurslarni jalb qilish va ulardan foydalanish natijasida yuzaga keladigan sarf – xarajatlar qanday nomlanadi?
66. “O'rtacha xarajat” tushunchasining ta'rifini izohlang.
67. Mahsulot (xizmat) sotishdan olingan pul tushumlari va qilingan sarf–xarajatlar o'rtasidagi farq nima va u qanday hissoblanadi?
68. Real ish haqi deganda nimani tushunasiz?
69. Yer uchastkalarining iqtisodiy unumdorligini oshirish natijasida kelib chiqadigan renta qanday nom bilan ataladi?
70. Yer uchastkalarining tabiiy unumdorligi va iste'molchilarga nisbatan joylanishidagi farq tufayli vujudga keladigan renta nima deyiladi?
71. Yerga egalik huquqining iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqarilish shakli qanday nomlanadi?
72. Ish haqi mahsulot birligi uchun belgilangan yagona rassenka bo'yicha to'lab borilsa ishbay ish haqining qanday turi qo'llanilgan bo'ladi?

73. Real yalpi ichki mahsulot va aholi soni o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirib bering?
74. Yalpi ichki mahsulot nima?
75. Yalpi ichki mahsulotning mamlakat rivojlanishidagi ahamiyatini izohlang.
76. YAIM tarkibiga nimalar kiradi? Misollar orqali tushuntiring.
77. Real YAIM(YAIM) ga nimalar tasir ko'rsatadi ?
78. YAIM deflyatorini toping? Va uni tasniflab bering.
79. Makroiqtisodiy beqarorlikni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni yozing.
80. Qaysi makroiqtisodiy model davlat byudjeti daromadlari va soliq stavkasi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi?
81. Qat'iy valyutalarda yoki solishtirma narxlarda hisoblangan YAIM haqida tushuncha bering.
82. Yalpi talab hajmi va narx umumiy darajasi o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud? Izohlab bering.
83. Uy xo'jaliklari ixtiyoridagi daromadlari bir qismining foizli daromad olish va kelajakdagi iste'molini qondirish maqsadida to'planib borishi nimani anglatadi? Kengtoq tushuntirib bering?
84. Investitsiyalar darajasini belgilaydigan asosiy omil nima?
85. Shaxsiy iste'mol qanday ro'yobga chiqadi?
86. Jamg'arma haqida tushuncha bering.
87. Jamg'armani amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadlarni sanab bering.
88. Unumli iste'mol qanday amalga oshadi?
89. Investitsiyalarni amalga oshirishga qaratilgan amaliy xarakatlar nimalardan iborat?
90. Sof milliy mahsulot (milliy daromad) o'sgan qismi investitsiyalar o'sgan summasiga nisbati nima deyiladi? Tushuntirib bering.
91. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning klassik yo'li deganda nimalarni tushunasiz?
92. Oddiy tovar xo'jaligidan erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyotiga va undan hozirgi zamon madaniy jixatdan rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o'tish qaysi mamlakatlarga tegishli?
93. Makroiqtisodiyot darajasida muvozanatlikni ta'minlash, ishlab chiqarishning keskin pasayishiga va ommaviy ishsizlik, pul qadrsizlanishining oldini olish hamda to'lov balansini bir me'yorda saqlashga qaratilgan siyosat haqida tushuncha bering.
94. Ishlab chiqarish texnologiyasining takomillashuvi haqida tushuncha bering.
95. Ishlab chiqaruvchilar tayyorlagan mahsulotlariga ko'zda tutilgan muddatdan nisbatan avvalroq yuqori narx belgilashga majbur bo'lishi mumkin shunday holatlarni sanab bering.
96. Iqtisodiy hayotda shunday holat yuz berish mumkinki, ayrim tovarlarga narxlar o'sishi bilan ularga bo'lgan talab kamaymasdan balki ortib, boradi. Bu holat qanday nomlanadi? Misollarda tushuntirib bering.
97. Iste'molchining tovar va xizmatlarga talabi ularning daromadlari, didi va afzal ko'rishini hisobga olib shakllantirilish jarayoni nima deb ataladi?
98. Tabiiy monopoliya nima?
99. Narx vositasida raqobat haqida tushuncha bering.
100. Sotuvchilar o'rtasidagi raqobat haqida tushuncha bering.
101. Narx yordamida raqobatlashishning qaysi turida milliy ishlab chiqaruvchilar tovarlarni tashqi bozorga ichki bozordagi narxlardan, ayrim hollarda tannarxdan ham past bo'lgan narxlarda chiqaradi?
102. Iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy va texnologik xususiyatlarga ko'ra raqobatni qo'llash mumkin bo'lmagan yoki qo'llanish qiyin bo'lgan sohalar qanday nomlanadi?
103. Narxlar oralig'idagi farqlarning puldagi miqdoriy ifodasi qanday nom bilan ataladi?
104. Aksiyalar haqida tushuncha bering.
105. Amartizatsiya ajratmasi haqida tushuncha bering.
106. Lorens egri chizig'i nima?

107. Aholi daromadlari nima?
108. Aholining turmush darajasi qaysi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi?
109. Davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni yumshatish, bozor iqtisodiyoti ishtirokchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilish va aholini samarali ijtimoiy himoyalash siyosati qanday nomlanadi?
110. Dunyo mamlakatlarining o'zaro bog'likliging kuchayishi va mehnat taqsimoti asosida ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning ko'shilib borishi qanday jarayonni ifodalaydi?
111. Mehnatning jahon davlatlari o'rtasida taqsimlanishi ya'ni alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlarning muayyan turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi haqida tushuncha bering?
112. Chetga kapital chiqarishning ashyoviy buyum ko'rinishiga ko'ra turkumlangan shakli haqida tushuncha bering.
113. Erkin savdoni cheklashga qaratilgan qanday to'siqlarni bilasiz?
114. Oltin–deviz (Bretton–Vuds) valyuta tizimi haqida tushuncha bering?
115. Nisbiy ustunlik deganda nimani tushunasiz?
116. Iqtisodiy potensial deganda nimani tushunasiz?
117. Iqtisodiy o'sishga to'squinlik qiladigan omillarni sanab bering.
118. Iqtisodiy o'sish nima?
119. Intellektual boylik turini sanab bering.
120. Umumiy, ya'ni makroiqtisodiy muvozanatlilik haqida nimalarni bilasiz?
121. Iqtisodiy turg'unlik haqida tushuncha bering.
122. Qanday iqtisodiy modellarni bilasiz?
123. Ish bilan ta'minlanmaganlarni qayta o'qitish va yangi kasbga tayyorlashdan ko'zlangan asosiy maqsad nima?
124. Bozor infratuzilmasining ayirboshlashga xizmat ko'rsatuvchi muassasasi izohlang.
125. Bozorda juda ko'p sotuvchilar va xaridorlar mavjud bo'lib, ulardan hech biri bozor baholariga o'z ta'sirini o'tkaza olmasa, hamda bozorga kirish uchun hech qanday to'siqlar bo'lmasa bu qanday bozorni xarakterlaydi?
126. «Monetar qoida» tushunchasi haqida nimani bilasiz?
127. Davlat monopoliyalarga qarshi faoliyatni qaysi maqsadda amalga oshiradi?
128. Bozor iqtisodiyotini tartibga solishning qaysi usuli raqobat, narx, talab va taklif nisbatiga asoslanadi?
129. Davlatning iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatishining ma'muriy vositasi (dastagi) deganda nimani tushunasiz?
130. Davlatning iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatishning kreditli dastagini toping.
131. Real ish haqining to'g'ri ta'rifini nimani anglatadi?
132. Ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori yoki bajarilgan ishning hajmiga qarab belgilanadigan ish haqi qanday nomlanadi?
133. Mehnat qilishning aniq sharoitlarini hisobga olib ish haqi to'lashning qo'llaniladigan turlari qanday nomlanadi?
134. Ishlab chiqarishning me'yorlashtirilgan hajmi uchun qat'iy belgilangan va undan ortiqchasiga o'sib boruvchi rassenka asosida ish haqi to'lab borilsa ishbay ish haqining qanday turi qo'llanilgan bo'ladi?
135. Mamlakat hududlari, iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarish va kasb turlari hodimlar toifasi hamda aniq xizmat vazifasini bajaruvchilar bo'yicha ish haqi darajasini tabaqalashtirish qanday amalga oshiriladi?
136. Yalpi ichki mahsulot qanday usullarda aniqlanadi?
137. Real YAIM(YAMM) nima?
138. Yalpi talab ortganda narx tez ko'tarilib, talab kamayganda u pasaymasligi mumkinligi nima bilan izohlanadi?

139. Asosiy natijaviy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar deganga nimalarni tushunasiz?
140. Investitsiyalarning ichki manbai nima hisoblanadi?
141. YAMM deflyatorining ahamiyati nimada?
142. Makroiqtisodiy model davlat byudjeti daromadlari va soliq stavkasi o'rtasidagi bog'liqlikni niamada deb o'ylaysiz?
143. Jamg'armani amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadlardan qaysi biri bugungi pul daromadining kelgusidagi qiymatini oshirishga qaratiladi?
144. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning revalutsiyon yo'li haqida tushuncha bering.
145. Iqtisodiy islohotlar nima?
146. Respublikada agrar islohotlarning negizini nima tashkil qiladi?
147. Davlat mulkini xususiylashtirishning dastlabki bosqichida qanday vazifa amalga oshirildi?
148. Respublikada narxlar qaysi davrdan boshlab erkinlashtirila boshladi?
149. O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan tadbirlardan qaysi biri iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning barcha davrida o'z o'rniga ega bo'ladi?
150. Agar ikki tovar bir-birini o'rnini bossa, u holda birining narxining o'sishi ikkinchisiga qanday ta'sir qiladi?
151. Talab hajmining uning miqdorini belgilovchi omillarga bog'liqligi qanday nomlanadi?
152. Tabiiy monopoliyaga nima va unga misol keltiring?
153. Raqobatning qaysi shaklida ishlab chiqaruvchilar bozor narxlarini to'liq nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi?
154. Iste'molchilar o'rtasidagi raqobatni nimalar tavsiflaydi?
155. Mahsulotning yagona ishlab chiqaruvchisi mavjud bo'lib, bozorga kirish uchun to'siqlar katta ya'ni taqiqlash bilan barobar bo'lgan raqobat shaklini ko'rsating?
156. Egasi aksionerlik jamiyati kapitaliga hissasini qo'shganligi, uning foydasidan devidend shaklida daromad olish, korxonani boshqarishda qatnashish va jamiyat tugatilganda uning mulkiga sheriklik huquqi borligidan guvohlik beruvchi qimmatli qog'oz qanday nomlanadi?
157. Asosiy kapital eskirib borishi bilan, uning qiymati ishlab chiqilayotgan mahsulot (xizmat)ga o'tkazilishi va mehnat vositalarini qayta tiklash maqsadida jamg'arilib borilishi jarayoni nimani anglatadi?
158. Lorens egri chizig'i bissektisa o'qidan ancha uzoqlashishi nimani bildiradi?
159. Aholining turmush darajasining qaysi ko'rsatkichi uning alohida guruhlar uchun aniqlanadi?

"Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasining mudiri:



I.I. Ayubov